

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Babadjanov	
O'zbek tilida ish yuritish tizimining shakllanishi va uning mustaqillik davridagi taraqqiyoti	637
Э.Х.Мустаева	
Риторическая компетенция как основа формирования профессиональной коммуникации в условиях цифровизации	641
З.А.Низомитдинова	
Сравнительная идентификация гендерного дискурса в медиасреде	647
Н.М.Каримова	
Эволюция художественного языка В. Распутина и Х. Дустмухаммада: этапы и особенности	652
Ш.Н.Саминжонова	
Современные подходы исследования когнитивных единиц языка сети интернет	657
М.Э.Турсунова	
Влияние глобализации на язык молодежи на примерах англицизмов	663
Э.И.Ибрагимова, З.Т.Исаева	
Ключевые направления эволюции русского языкознания в XXI веке: возникновение научных парадигм	666
З.Т.Исаева	
Комплексный анализ парадигматических и синтагматических структур	672
Д.О.Турдалиев	
Теория лингвистической относительности и её отражение в повести теда чана «История твоей жизни»	678
Н.Т.Ходжаева	
Современные методы преподавания русского языка как иностранного: технологии, подходы, практическая значимость	681
В.Гимадетдинова	
Анализ лингвокреативных стратегий современного медиатекста	684
Э.А.Абдуллаева	
Социокультурный анализ межкультурных коммуникаций	688
Б.Х.Абдуллаева	
Трансформация фразеологизмов в русском языке XXI века	693
У.М.Юлбарсова	
Лингвокультурные различия в восприятии концепта "Дом" у русских и узбеков	697
М.Т.Abdupattoyev	
Poetik sintaksis: ekspressiv va ekstralingvistik vositalar talqini	700
F.H.Islomova	
Matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi metodlar	704
A.R.Dadajonov, I.T.Xojaliyev	
Muhokama nutq tipining til tizimida tutgan o'rni	707
G.A.Asomiddinova	
Stefan Sveygning "Ayol hayotidan yigirma to'rt soat" novellasida inson ruhiy olamining talqini	711
Sh.T.Axmadjonova	
Ingliz va o'zbek tillarida badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari	714
Sh.G.Akbarova	
Nazar eshonqulning "Tobut" va Alber Kamyuning "Vabo" romanlarining qiyosiy tahlili	717
Д.С.Усмонова	
Аксиология языка: как ценности формируют фразеологию и культурное сознание	722
A.I. Saminov	
Oksyumoron komponentlarining mazmuniy munosabati	727
M.T.Xalilova	
Zamonaviy tilshunoslikda sintaktik sathdagi mazmuniy munosabatlarning o'rganilishi xususida	732
N.A.Quldashev	
Raqamli asrda til va identifikatsiya: ijtimoiy media, online muloqot va tildan foydalanish.	736
Г.Н.Давлятова, Г.М.Мамаджанова	
Фреймовое представление лингвокультурологических единиц	739



UO'K: 42/48+8.08+651.74

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BADIY USLUBNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ОСОБЕННОСТИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО СТИЛЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

FEATURES OF BELLES-LETRES STYLE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Axmadjonova Shahnoza Tolibjon qizi 

Farg'ona davlat universiteti, Ingliz filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari, uning universalligi va noyob lingvistik jihatlari o'rganiladi. Boshqa funksional uslublardan farqli o'laroq, badiiy uslub inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi, his-tuyg'ular, ichki dunyo va ijtimoiy haqiqatni aks ettiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu uslub o'quvchida estetik va hissiy ta'sir uyg'otishga qaratilgan bo'lib, nutq vositalaridan ijodiy foydalanadi. Tadqiqot mazkur uslubning asosiy funksiyalarini – axborot berish, ishonirish, kognitiv va estetik ta'sirni – aniqlaydi va uni nasr, poeziya va drama janrlarida aks etishini tahlil qiladi. Solishtirma tahlil har ikki tilda turli lingvistik birliklardan, masalan, so'zlashuv uslubi, adabiy terminlar va stilistik vositalardan foydalanilishini, ular badiiy-estetik maqsadlarga xizmat qilishini ko'rsatadi. Ingliz tilida badiiy uslub she'riy, nasriy va dramatik nutqqa ajratilsa, o'zbek adabiyotida shunga o'xshash tasniflar madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda taklif etiladi. Jumladan, ikkiga – prozaik va she'riy asarlar tiliga bo'linadi. Ushbu tadqiqot badiiy uslubning kognitiv va estetik jarayonlarni birlashtirish orqali adabiy tajribani qanday boyitishini ko'rsatadi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются особенности художественного стиля в английском и узбекском языках, акцентируя внимание на его универсальности и уникальных лингвистических характеристиках. В отличие от других функциональных стилей, художественный стиль охватывает все аспекты человеческой жизни и деятельности, служа средством отражения эмоций, внутреннего мира и социальной реальности. Он направлен на создание эстетического и эмоционального воздействия на читателя посредством художественного использования языка. Исследование выделяет ключевые функции данного стиля, включая информационную, убеждающую, когнитивную и эстетическую, а также изучает его проявления в прозе, поэзии и драме. Сравнительный анализ выявляет использование различных языковых единиц в обоих языках, таких как разговорные выражения, литературные термины и стилистические приёмы, которые служат художественно-эстетическим целям. Английский язык подразделяет стиль на поэтическую, прозаическую и драматическую речь, а узбекская литература предлагает аналогичные классификации с учетом культурных особенностей. В частности, он делится на два – язык прозаических и поэтических произведений. Работа подчеркивает, как художественный стиль соединяет когнитивные и эстетические процессы, обогащая литературный опыт.

Abstract

This article examines the distinctive features of the belles-lettres style in English and Uzbek, focusing on its universal applicability and unique linguistic characteristics. Unlike other functional styles, the belles-lettres style encompasses all aspects of human activity and life, serving as a medium to reflect emotions, inner worlds, and social realities. It aims to evoke aesthetic and emotional responses in readers through artistic use of language. The study identifies key functions of this style, including informative, persuasive, cognitive, and aesthetic roles, and explores its manifestation in prose, poetry, and drama. Comparative analysis reveals the use of diverse linguistic units in both languages, such as colloquial expressions, literary terms, and stylistic devices, which serve the artistic-aesthetic purpose. While English categorizes the style into poetic, prosaic, and dramatic speech, Uzbek literature offers similar classifications with additional cultural nuances. In particular, it is divided into two - the language of prosaic and poetic works. This research highlights how belles-lettres style bridges cognitive and aesthetic processes, enriching the literary experience.

Kalit so'zlar: badiiy uslub, funksional uslublilar, badiiy-estetik funktsiya, nasr, she'riyat, drama, stilistik vositalar, lingvistik xususiyatlar.

Ключевые слова: художественный стиль, функциональные стили, художественно-эстетическая функция, проза, поэзия, драма, стилистические приемы, лингвистические особенности.

TILSHUNOSLIK

Key words: *belles-lettres style, functional styles, artistic-aesthetic function, prose, poetry, drama, stylistic devices, linguistic features.*

KIRISH

Funksional uslublarning har bir turi ijtimoiy hayotning turli sohasi uchun xizmat qilishi va inson amaliy faoliyatining muayyan doirasiga mansubligi bilan farqlanadi. Shu sababli ular nutq faoliyatining ma'lum sohasiga taalluqli bo'ladi. Funksional uslubning bir turi – badiiy nutq uslubi esa, aksincha, inson amaliy faoliyati va hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umumga taalluqligi, barchaga barobarligi bilan ajralib turadi. Adabiyot turli xil kasb-hunar egalarining his-hayajonlarini tasvirlabgina qolmay, ularning ichki dunyosini, jamiyatdagi amaliyotini ham aks ettiradi. Shuning uchun ushbu uslubda nutq va til vositalari boshqacharoq – o'ziga xos xarakterda qo'llanadi, ya'ni badiiy nutq o'quvchi yoki tinglovchiga estetik va hissiy ta'sir ko'rsatishni maqsad qiladi. Badiiy adabiyotning bu o'ziga xos funksiyasiga badiiy asarda til vositalarini tanlash va ishlatish tamoyillari ham bo'ysunadi.

Badiiy uslub ingliz va o'zbek tili vazifaviy uslublari orasida o'ziga xos mavqega, ayni paytda alohida me'yorlariga ham ega. Til materiallarini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lingvistik birliklarning, shu bilan birga, boshqa vazifaviy uslublarga xos bo'lgan elementlarning ham ishlatilishi va ularning muhim – badiiy-estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi badiiy uslubning asosiy xususiyati hisoblanadi. Tabiiyki, bunday imkoniyat boshqa vazifaviy uslublarda chegaralangan.

Badiiy uslubning axborot, tarbiyaviy, ko'ngilochar, kognitiv va baholovchi kabi boshqa vazifalari ham mavjud. Matn ta'sirchan, ikki ma'noli va badiiy qahramonga ega. Har bir matn yozuvchining shaxsiy tarzda so'zlashuv uslubi, jargon va ilmiy atamalardan foydalanishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ingliz tilida badiiy uslub uch turga bo'linib o'rganiladi, ular she'riy nutq, nasriy nutq va dramatik nutqdur [1, 316].

O'zbek adabiyotshunosligiga oid asarlarda ham adabiy tur va janrlar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan [2, 184-304]. "Adabiyot nazariyasi" asarining mualliflari badiiy asar tilini tuzilishiga ko'ra farqlaydilar va uni ikkiga – prozaik va she'riy asarlar tiliga bo'ladilar [2, 357]. Lekin, ba'zi qo'llanmalarda badiiy nutqning uchta alohida ko'rinishlari mavjudligi tasdiqlanadi: nasriy nutq, she'riy nutq va dramatik nutq [3, 78].

Badiiy uslubning quyidagi vazifalari mavjud:

- 1) axborot berish;
- 2) ishlantirish;
- 3) o'quvchiga estetik ta'sir o'tkazish.

Badiiy uslub estetik ta'sir bilan bir qatorda kognitiv ta'sirga ham egadir [1, 230]. Bu juft ta'sir o'quvchini asosiy g'oyaga asta-sekin yetkazishi kognitiv jarayon hisoblansa, bir vaqtning o'zida asardan zavqlanish hissi – estetik jarayonni namoyon qiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Badiiy adabiyotda tarkibiy matnli qurilmalar (ular uch qismdan – kirish, asosiy qism, prolog va epilogniing murakkab namunasiga ega bo'lgan) xulosadan iboratdir, stilistik ahamiyat va qoidalardan chetga chiqish holatlari, syujetning ekspozitsiyasi, darajalanishi (Masalan: *"Little by little, bit by bit, and day by day, and year by year the baron got the worst of some disputed question"* Ch.Dickens, *"Eh-e, ozodlik, osudalik va muhtojisizlik tog' havosi va zilol suvday naqadar lazzatli, naqadar go'zal, naqadar bebaho!"* V.Zohidov), kulminatsion nuqtasi va natija asosiy o'rinni egallaydi.

Badiiy asar o'z ichiga bir qancha stilistik birliklar tizimini jamlaydi. Masalan, tasviriy vositalar – matnli, mukammal yoki rivojlanmagan metafora (*"How about playing the game with the cards face up?"* (how about speaking sincerely; *"Ko'm-ko'k vodiylarda Po'lat izlardan, kelayotir qora poyezd uchib, qarsillab..."* H.Olimjon.), metonimiya (*"We smiled at each other, but we didn't speak because there were ears all around us. The hall applauded"*; *"Majlisga butun qishloq keldi"* A.Qahhor), epitaf (*"Thief"*, Pilon shouted. *"Dirty pig of an untrue friend"*. *"Such was the background of the wonderful, cruel, enchanting, bewildering, fatal, great city"*; *"G'ururlanib poyezd qichqirib, uzoqlarga tomon uchadi, Oq bug'lari yengil suzilib, muzday havolarni quchadi"* Uyg'un), qiyoslash

(*"Kiss without moustache like meat without salt"*; *"Mana O'ktam hayajonlanib, go'yo butun dalani quchoqlagusi kelganday, qizg'in va, baland ruh bilan terimga kira boshladi"* Oybek), giperbola (*"A thousand pardons. I've told you forty times"*; *"Uzoq yillarda qora chashmangdan, oqqan siyohlarni o'lchasak agar..."* M.Shayxzoda), litotlar (*"He was not without taste ..."* *"It troubled him not a little ..."*; *"To'lqiniga qoyalar ham mo'rt, Qalb shunday keng, quyosh bir gugurt"* Oybek), so'z o'yini (*"Officer: What steps [measures] would you take if an enemy tank were coming towards you? Soldier: Long ones"*), oksimoron (*"delicious poison, low skyscraper, pleasantly ugly, sweet sorrow"*), zevgma (*"Whether the Nymph Shall stain her Honour or her new Brocade Or lose her Heart or necklace at a Ball"* Pope), takrorlanishlar: anafora (*"My heart's in the Highland, my heart is not hear. My heart's in the Highland, a chasing the deer..."*; *"Har bir so'z, har bir dalil, har bir taklifni qayta-qayta tekshirib ko'rish lozim"* Sh.Rashidov), epifora (*If he wished to float into fairyland, he reads a book, if he wishes to dash into the thick of battle, he reads a book, if he wishes to soar into heaven, he reads a book*; *"Laylak kelar, yoz bo'lur, qanoti qog'oz bo'lur. A'lochi o'quvchi qizning ahloqi ham soz bo'lur"* G'G'ulom), anadiplozis (*Three fishers went sailing out into the west, Out into the West, as the sun went down*) va boshqalar.

XULOSA

Til vositalarini qo'llashdagi ana shu keng qamrovlilik bo'lishi bilan birga, bu uslub doirasida ularni qo'llashning ma'lum me'yorlariga ham amal qiladiki, fonetik, grammatik, leksik, va frazeologik xususiyatlar tarzida ko'zga tashlanadigan ana shu me'yorlar uni boshqa vazifaviy uslublardan chegaralash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. 3-е издание. – М.: Высшая школа, 1988 г. 316 с.
2. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 392 б.
3. Тожиев Ё., Хасанов Н., Тожиматов Х., Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Фан, 1994. – 78 б.